


**Farg'ona viloyatining  
CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI**  
*(2019 yil yanvar-avgust dastlabki ma'lumot)*


Farg'ona viloyati bo'yicha joriy yilning yanvar- avgust oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 7876,4 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 104,8 %ga o`sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 1027,8 mlrd. so`mni (o'sish sur`ati 125,5%), kichik tadbirdorlik sub`ektlarining tovar aylanmasi 6848,6 mlrd. so`mni (o'sish sur`ati 102,2 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 766,3 mlrd. so`mni (o`tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur`ati 99,8 %)ni tashkil etdi.

**Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi  
(mlrd. so`m)**



2019 yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur`atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur`atlari, Farg'ona, Qo'qon, Marg'ilion shaharlarda, shuningdek, Quva, Qoshtepa, Uchko'prik tumanlarida qayd etildi.


### Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur`atlari, (%)




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 125,5 %ga o'sdi va 1027,8 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 13,0 % ulushiga to'g'ri keladi.

Kichik tadbirdorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko`ra, 6848,6 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar- avgust oylariga nisbatan 102,2 %ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 87,0 %ga teng kelmoqda.

### Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)



**Chakana savdo aylanmasida  
yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, (%)**



█ Kichik tadbirkorlik  
█ Yirik korxonalar


Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo'yicha Qo'shtepa t (99,8%), Farg`ona t (99,3%) Beshariq t (98,4%) Furqat t (98,4 %) tumanlarida yuqori ulushga egaligi ko`rinib turibdi.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 13,0% ni tashkil etib, eng katta ulushi Farg`na sh (28,6%), Bag'dod tumani (19,7%) va Qo'qon (17,9%), shaxarlarida kuzatilgan.

**Kichik tadbirdorlik va yirik korxonalarning  
chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**

	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik tadbirdorlik (mlrd.so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>1027,8</b>	<b>125,5</b>	<b>6848,6</b>	<b>102,2</b>
<b><i>shaharlar</i></b>				
Farg'ona	571,4	138,0	1 425,1	100,8
Qo'qon	213,3	105,7	977,2	107,8
Quvasoy	8,7	58,5	176,0	107,4
Marg'ilon	69,3	114,3	568,2	100,8
<b><i>tumanlar</i></b>				
Oltiariq	10,4	104,0	284,1	103,6
Qo'shtepa	0,7	143,9	375,2	102,3
Bag'dod	53,6	358,8	219,0	92,2
Buvayda	5,5	116,0	273,4	103,0
Beshariq	4,7	93,7	280,7	104,0
Quva	30,5	284,2	354,8	100,6
Uchko'prik	10,7	276,3	289,2	102,1
Rishton	11,5	54,6	246,7	105,0
So'x	0,9	171,1	124,4	100,5
Toshloq	14,1	89,1	214,8	102,4
O'zbekiston	6,2	100,2	228,0	102,9
Farg'ona t	2,0	10,0	284,6	109,2
Dang'ara	5,4	109,6	173,0	102,3
Furqat	2,1	107,2	134,5	105,1
Yozyovon	7,0	92,3	219,7	104,0

### Hududlarda kichik tadbirkorlik sub`ektlarining viloyati chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)



2019 yil yanvar- avgust oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo`yicha aholi jon boshiga 2131,3 ming so`mni tashkil qilib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 104,4 %ga ko`paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2018 yilning yanvar-avgust oyida o`tgan yilga nisbatan viloyatimizning barcha hududlarida o`sish ko`rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko`rsatkilar Farg'ona (7002,0 ming.so`m), Qo'qon (4771,4 ming. so`m) va Marg'ilon (2749,9 ming.so`m) shaharlari hissasiga to`g`ri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo`yicha eng kam ko`rsatkichlar O'zbekiston t (1000,8 ming.so`m), Dang'ara t (1050,0 ming.so`m) va Toshloq t (1156,6 ming so`m) tumanlarida qayd etilgan. Ushbu ko`rsatkich shaharlar va tumanlar kesimida quyidagicha ko`rinish olgan:

### Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so`m	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>2131,3</b>	<b>104,4</b>
<i>shaharlar</i>		
Farg'ona	7002,0	107,8
Qo'qon	4771,4	101,4
Quvasoy	2007,2	103,4
Marg'ilon	2749,9	107,9
<i>tumanlar</i>		
Oltiariq	1420,8	103,2
Qo'shtepa	2018,6	102,0
Bag'dod	1294,5	107,6
Buvayda	1250,2	102,9
Beshariq	1275,4	103,5
Quva	1520,9	105,7
Uchko'prik	1340,5	104,1
Rishton	1303,3	100,5
So'x	1640,6	100,5
Toshloq	1156,6	101,2
O'zbekiston	1000,8	102,5
Farg'ona t	1372,5	101,8
Dang'ara	1050,0	102,2
Furqat	1179,8	105,0
Yozyovon	2095,0	103,2

Jumladan, 2019 yilning yanvar-avgust oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,7 % ni tashkil etib, 130,5 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 101,5 % o'sishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 98,1 % ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.

## FARG`ONA VILOYATINING


### ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar-avgust)

Yil boshidan viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 3333,6 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 108,5 %ga o'sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik sub`ektlariga to`g`ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar-avgust oylari yakunlariga ko`ra 2637,2 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 108,4 % ga o'sdi. Ushbu sektorning umumiyligi ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 79,1 %ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa shahar va tumanlar bilan taqqoslaganda, Marg'ilon shahar, Quvasoy shahar, Qo'shtepa t, Buvayda t, Beshariq t va Quva t (100,0%) va boshqa Oltiariq (99,9%), Dang`ara (99,8) Uchko`prik (99,3%) tumanlarida yuqori bo'lgan.

**Yirik va kichik korxonalarining  
ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)**




█ Yirik korxonadlar  
█ Kichik korxonalar

Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasining ulushi 20,9 % ni tashkil etdi, yirik korxonalarning aksariyati Farg`ona (49,9%), Qo'qon (14,3%) shaharlida hamda Bog`dod (14,5%) tumanida kuzatildi.

### Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mlrd. so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar (mlrd.so`m)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>3333,6</b>	<b>108,5</b>	<b>696,5</b>	<b>108,8</b>	<b>2637,2</b>	<b>108,4</b>
<i>shaharlari</i>						
Farg'ona	1 250,3	115,8	624,2	106,5	626,1	126,9
Qo'qon	442,5	118,5	63,5	262,8	379,0	108,5
Quvasoy	55,3	108,9	-		55,3	108,9
Marg'ilon	438,2	107,6	0,1	4,9	438,1	108,0
<i>tumanlari</i>						
Oltiariq	66,1	106,2	0,1	59,9	66,1	106,3
Qo'shtepa	4,5	109,0	0,0	-	4,5	
Bag'dod	33,3	113,7	4,8	23,5	28,4	326,7
Buvayda	48,7	108,6	-	-	48,7	108,6
Beshariq	36,2	106,8	-	-	36,2	106,8
Quva	24,4	100,8	-	-	24,4	100,8
Uchko'prik	110,1	97,0	0,7	121,4	109,4	96,8
Rishton	14,5	106,2	0,4	88,3	14,1	106,8
So'x	2,1	112,0	0,1	31,7	2,0	127,4
Toshloq	173,7	108,4	1,7	117,2	172,0	108,4
O'zbekiston	416,8	89,6	0,2	46,1	416,7	89,7
Farg'ona t	26,7	91,6	0,2	4,5	26,5	106,9
Dang'ara	147,2	108,8	0,3	123,5	146,9	108,8
Furqat	17,1	92,6	-	0,0	17,1	92,6
Yozyovon	26,0	97,8	0,2	112,2	25,8	97,7

### Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining o'tgan yilga nisbatan o'zgarish sur'atlari, (%)



Ulgurji tovar aylanmasida o'tgan yilning shu davriga nisbatan eng quiy o'sish sur'ati Ozbekiston t (89,6%) Furqat t (92,6%) va Fargo`na t (91,6%) tumanida qayd etildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo`limi

Tel.:71-230-87-18